TASAVVUF TA'LIMOTINING SHAKLLANISH TARIXI, MOHIYATI VA ASOSIY G'OYALARI HAMDA UNING SHARQ MADANIYATIGA TA'SIRI

Marajapova Matluba Abdukadirovna
Adilova Go'zal Ziyaviddinovna
Ulug'ova Munisa Eshoqul qizi
CHDPU Maktabgacha va boshlang'ich
ta'lim fakulteti MAT25/2

F. Fayzullayev
Ilmiy rahbar:
https://doi.org/10.5281/zenodo.24340418

Annotatsiya: Maqolada tasavvuf ta'limotining tarixiy shakllanish jarayoni, nazariy va amaliy asoslari, asosiy g'oyalari hamda sharq xalqlari madaniy taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri ilmiy-tarixiy nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Tasavvufning dastlabki zohidlik an'analaridan mustaqil ma'naviy-axloqiy yo'nalish va tariqatlar tizimiga aylanish jarayoni tahlil qilinadi. Shuningdek, Hasan Basriy, Robiya Adaviya, Junayd Bag'dodiy, Abu Homid G'azzoliy kabi mutasavviflarning qarashlari, Markaziy Osiyoda Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Najmiddin Kubro va Bahouddin Naqshband faoliyatining tarixiy ahamiyati ochib beriladi. Tasavvufning Sharq adabiyoti, falsafasi, me'morchiligi, san'ati va axloqiy tarbiya tizimiga ta'siri tarixiy misollar asosida yoritiladi.
Kalit so'zlar: tasavvuf, so'fiylik, zohidlik, tariqat, ma'rifat, nafs tarbiyasi, ilohiy muhabbat, komil inson, Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandiya, Sharq madaniyati.

Аннотация: В статье исследуются историческое становление суфийского учения, его теоретические и практические основы, основные идеи и влияние на культурное развитие народов Востока. Анализируется процесс преобразования ранних аскетических традиций в самостоятельное духовно-нравственное направление и систему суфийских орденов. Особое внимание уделяется наследию Хасана Басри, Рабии аль-Адавии, Джунайда Багдади, Абу Хамида аль-Газали, а также выдающихся представителей центральноазиатского суфизма-Ахмада Ясави, Абдулхалика Гиждувани, Наджмуддина Кубра и Бахауддина Накшбанда. Рассматривается влияние суфизма на литературу, философию, архитектуру, искусство и нравственное воспитание народов Востока.
Ключевые слова: суфизм, аскетизм, духовность, тарикат, познание, нравственное воспитание, совершенный человек, Ясавия, Кубравия, Накшбандия, культура Востока.

Abstract: This article examines the historical formation of Sufism, its theoretical and practical foundations, major ideas, and influence on the cultural development of Eastern societies. It analyzes the transformation of early Islamic ascetic traditions into an established spiritual and ethical movement and the development of Sufi orders. Particular attention is given to the contributions of Hasan al-Basri, Rabia al-Adawiyya, Junayd al-Baghdadi, Abu Hamid al-Ghazali, and Central Asian Sufi figures Ahmad Yasawi, Abd al-Khaliq Ghijduvani, Najm

al-Din Kubra, and Baha al-Din Naqshband. The article also explores the influence of Sufism on Eastern literature, philosophy, architecture, art, and moral education.

Keywords: Sufism, asceticism, spirituality, Sufi orders, spiritual knowledge, moral education, perfect human being, Yasawiyya, Kubrawiyya, Naqshbandiyya, Eastern culture.

Jahon sivilizatsiyasi tarixida sharq xalqlarining ma’naviy va madaniy taraqqiyoti muhim o‘rin egallaydi.Taraqqiyot jarayonida diniy-falsafiy ta’limotlar, axloqiy qarashlar va ma’naviy qadriyatlar jamiyat hayotining turli sohalariga ta’sir ko‘rsatgan. Islom sivilizatsiyasi doirasida shakllangan tasavvuf ana shunday muhim ma’naviy-falsafiy yo‘nalishlardan biridir.Tasavvuf insonning ichki dunyosini takomillashtirish, qalbni salbiy illatlardan tozalash, nafsni tarbiyalash va ma’naviy kamolotga erishish masalalarini o‘rganuvchi ta’limot sifatida rivojlangan. Uning asosiy e’tibori insonning tashqi diniy amallari bilan bir qatorda ichki e’tiqodi, niyati va axloqiy fazilatlariga ham qaratilgan.Tasavvuf tarixini o‘rganish musulmon Sharqida yuz bergan ijtimoiy, diniy va madaniy jarayonlarni tushunishda alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, Markaziy Osiyo hududida shakllangan Yassaviya, Kubroviya va Naqshbandiya an’analari nafaqat diniy hayot, balki turkiy va forsiy adabiyot, xalq og‘zaki ijodi, me’morchilik hamda ma’naviy tarbiya rivojiga ham ta’sir ko‘rsatgan.Mavzuning dolzarbligi shundaki, tasavvuf merosini tarixiy manbalar asosida xolis o‘rganish ajdodlarimizning ma’naviy tafakkuri, axloqiy qarashlari va sharq madaniyatidagi o‘rnini chuqurroq anglash imkonini beradi.Tasavvuf ta’limotining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini, uning nazariy mohiyati va asosiy g‘oyalarini hamda sharq madaniy taraqqiyotiga ko‘rsatgan ta’sirini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.Tadqiqotning asosiy vazifalari,tasavvufning tarixiy shakllanish shart-sharoitlarini aniqlash,tasavvuf ta’limotining asosiy tushunchalari va tamoyillarini tahlil qilish;markaziy osiyo mutasavviflarining ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish,tasavvufning sharq adabiyoti, falsafasi, san’ati va me’morchiligiga ta’sirini ochib berish;tasavvufiy merosning zamonaviy ma’naviy tarbiyadagi ahamiyatini baholash.Maqolada tarixiylik, qiyosiy-tahliliy yondashuv, manbashunoslik, tizimli tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tarixiy jarayonlar mutasavviflar merosi hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida o‘rganildi.Tasavvuf ta’limotining shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari tasavvufning shakllanishi islom tarixining dastlabki asrlari bilan bog‘liq.Tadqiqotchilar uning dastlabki ildizlarini VII–IX asrlarda musulmon jamiyatida yuzaga kelgan zohidlik, taqvodorlik va ruhiy poklanishga intilish an’analari bilan izohlaydilar. Bu davrda ayrim musulmonlar dunyoviy boylik va hashamga ortiqcha berilmaslik, ibodat, tavba va axloqiy kamolotga intilishni o‘z hayotlarining asosiy maqsadi sifatida qabul qilganlar.Tasavvufning dastlabki shakllanishida Basra, Kufa, Bag‘dod va Xuroson kabi markazlar muhim rol o‘ynagan. Hasan Basriy (642–728) insonning o‘z amallarini nazorat qilishi, oxiratni unutmasligi va nafs istaklariga berilmasligi haqidagi qarashlari bilan tanilgan. Robiya Adaviya (taxminan 713–801) esa ilohiy muhabbat g‘oyasini tasavvufiy tafakkurning muhim tarkibiy qismiga aylantirgan namoyandalardan biridir.IX asrga kelib tasavvufning nazariy asoslari rivojlana boshladi. Junayd Bag‘dodiy (vafoti 910-yil) tasavvufiy tajribani diniy-axloqiy me’yorlar bilan uyg‘unlashtirishga intilgan. Abu Yazid Bistomiy qarashlarida esa ruhiy tajriba, nafsdan xalos bo‘lish va ma’naviy yuksalish masalalari muhim o‘rin egallagan.X–XI asrlarda tasavvufiy bilimlar tizimlashtirilib, uning asosiy tushunchalari va ruhiy tarbiya usullari haqida maxsus asarlar yaratildi.Jumladan, Abu Nasr Sarrojning «Al-Luma’», Abu Tolib Makkiyning «Qut al-

qulub» va Ali ibn Usmon Hujviriyning «Kashf al-mahjub» asarlari tasavvuf tarixini o‘rganishda muhim manbalar hisoblanadi.Abu Homid G‘azzoliy (1058–1111) tasavvufning islomiy ilmiy tafakkurdagi mavqeini mustahkamlashga katta hissa qo‘shgan. Uning «Ihyo ulum ad-din» asarida inson axloqi, qalb tarbiyasi, ibodatning ichki mohiyati va ma’naviy poklanish masalalari keng yoritilgan.XII–XIII asrlarda tasavvuf tariqatlar shaklida institutsional rivojlanish bosqichiga o‘tdi. Bu jarayonda ustoz-shogird munosabatlari, ruhiy tarbiya qoidalari, zikr amaliyotlari va tariqat silsilalari shakllandi.Qodiriya, Yassaviya, Kubroviya va keyinchalik Naqshbandiya kabi tariqatlar musulmon Sharqining turli hududlarida keng tarqaldi.Shunday qilib, tasavvuf tarixini shartli ravishda uch asosiy bosqichga ajratish mumkin: dastlabki zohidlik davri, nazariy-falsafiy shakllanish davri va tariqatlar tizimi rivojlangan davr. Biroq bu bosqichlar bir-biridan keskin ajralmagan, ular o‘zaro uzviy bog‘liq tarixiy jarayonni tashkil etgan.

Tasavvuf ta’limotining mohiyati va asosiy g‘oyalari tasavvufning mohiyati insonning ruhiy va axloqiy kamolotga erishishiga qaratilgan ma’naviy tarbiya tizimida namoyon bo‘ladi.Uning asosiy maqsadi qalbni salbiy xususiyatlardan tozalash, insonning o‘z nafsini boshqarishi va ezgu fazilatlarni shakllantirishidir.Tasavvufiy qarashlarda insonning ma’naviy kamoloti tashqi xatti-harakatlar bilangina emas, balki uning ichki niyati, samimiyligi va axloqiy mas’uliyati bilan ham belgilanadi.Tasavvufning asosiy tushunchalari quyidagilardan iborat.Tavba insonning o‘z xatolarini anglab, ulardan qaytishi va ezgu hayot tarziga intilishidir.Tavba ruhiy poklanishning boshlang‘ich bosqichi sifatida qaraladi.Zuhd moddiy ne’matlarga haddan tashqari bog‘lanmaslik, dunyoviy manfaatlarni hayotning oliy maqsadiga aylantirmaslikdir.Bu tushuncha dunyodan butunlay voz kechishni emas, balki moddiy manfaatlarning inson ma’naviyatidan ustun kelmasligini anglatadi.Sabr qiyinchiliklarga bardosh berish, o‘zini tuta bilish va ezgu maqsad sari qat’iyat bilan intilishdir.Tavakkul insonning o‘z imkoniyatlari doirasida harakat qilib, natijani Allohga topshirishidir.Bu tushuncha harakatsizlik yoki mas’uliyatsizlikni anglatmaydi.Ixlos amalga oshirilayotgan ezgu ishning samimiy niyat asosida bajarilishi, riyo va manfaatparastlikdan uzoq bo‘lishdir.Ma’rifat insonning o‘zligini, borliqni va ilohiy haqiqatni chuqur anglashga intilishidir.Muhabbat insonni ezgulikka, mehr-shafqatga va ruhiy yuksalishga undovchi ma’naviy kuch sifatida talqin qilinadi.Tasavvufda fano va baqo tushunchalari ham muhim o‘rin tutadi.Fano, asosan, insonning xudbinlik va nafsga bog‘liq salbiy xususiyatlardan xalos bo‘lishini ifodalasa, baqo ma’naviy yetuklik va ezgu fazilatlar bilan yashash holatini anglatadi.Tasavvufning muhim maqsadlaridan biri komil insonni tarbiyalash g‘oyasidir.Komil inson tushunchasi faqat diniy bilimga ega bo‘lish bilan cheklanmaydi.U adolatli, halol, kamtar, mehribon, sabrli va jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglaydigan shaxs timsolidir.

Markaziy Osiyo tasavvuf tarixida muhim o‘rin egallagan hududlardan biridir. Mintaqada Yassaviya, Kubroviya va Xojagon-Naqshbandiya an’analari shakllanib, musulmon Sharqining ma’naviy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.Ahmad Yassaviy (taxminan 1093–1166/1167) turkiy xalqlar tasavvufiy tafakkurining yirik vakili hisoblanadi. Uning nomi bilan bog‘liq Yassaviya an’anasi Markaziy Osiyo va Dashti Qipchoq hududlarida tarqalgan. «Devoni hikmat» asarida insonning nafsini tiyishi, halollik, kamtarlik, sabr, ilohiy muhabbat va ma’naviy poklanish masalalari yoritilgan.Yassaviyning tarixiy ahamiyati shundaki, u tasavvufiy qarashlarni turkiy tilda ifodalash orqali ularning keng xalq qatlamlari orasida

yoyilishiga xizmat qilgan. Uning hikmatlari diniy-ma’rifiy mazmun bilan bir qatorda, turkiy adabiyot rivojida ham muhim o‘rin tutadi.

Abduxoliq G‘ijduvoniy (taxminan 1103–1179) Xojagon an’anasining muhim namoyandasi bo‘lgan. Uning ta’limotida hushyorlik, halol mehnat, qalb pokligi va kundalik hayotda ma’naviy intizomga rioya qilish g‘oyalari alohida ahamiyat kasb etadi.G‘ijduvoniy bilan bog‘liq tamoyillar keyinchalik Naqshbandiya tariqatining ma’naviy asoslari tarkibiga kirgan.

Najmiddin Kubro (1145–1221) Kubroviya tariqatining asoschisi sifatida tanilgan. U Xorazmda tasavvufiy ilmiy muhitning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Uning qarashlarida ruhiy tarbiya, qalb pokligi, insonning ichki kechinmalari va ma’naviy kamolot masalalari muhim o‘rin egallaydi.

Bahouddin Naqshband (1318–1389) esa Xojagon an’anasi asosida rivojlangan Naqshbandiya tariqatining shakllanishida asosiy o‘rin tutadi. Uning «Dil ba yor-u, dast ba kor» tamoyili ko‘ngilning ma’naviy yuksaklikka intilishi bilan kundalik mehnat faoliyatini uyg‘unlashtirish g‘oyasini ifodalaydi.Naqshbandiya ta’limotida insonning jamiyatdan uzilib qolmasligi, halol mehnat qilishi, o‘z vazifalarini mas’uliyat bilan bajarishi va qalban poklikka intilishi muhim hisoblanadi. Ushbu tariqatning keyingi asrlarda Markaziy Osiyo, Eron, Hindiston va Usmonli hududlariga tarqalishi uning xalqaro miqyosdagi ta’sirini kuchaytirgan.Markaziy Osiyodagi tasavvufiy maktablarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ular umumiy ma’naviy maqsadlarga ega bo‘lishiga qaramay, ruhiy tarbiya usullari, zikr shakllari va ijtimoiy faoliyatida muayyan farqlarga ega bo‘lgan.

Tasavvuf Sharq madaniyatining bir qator yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatgan. Uning ta’sirini, ayniqsa, adabiyot, falsafa, me’morchilik, san’at va ijtimoiy-axloqiy tarbiya misolida kuzatish mumkin.Tasavvuf Sharq mumtoz adabiyotining g‘oyaviy va badiiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shgan. Ilohiy muhabbat, ruhiy izlanish, komil inson, adolat, sabr va ma’naviy poklanish kabi mavzular fors-tojik va turkiy adabiyotda keng yoritilgan.Jaloliddin Rumiy (1207–1273)ning «Masnaviyi ma’naviy» asari tasavvufiy adabiyotning yirik namunalaridan biridir. Unda inson ruhiyati, axloqiy kamolot, muhabbat va borliq masalalari badiiy hikoyatlar orqali ifodalangan.Fariduddin Attorning «Mantiq ut-tayr» asarida qushlarning Simurg‘ni izlash safaridan foydalanib, insonning ma’naviy izlanishi ramziy tarzda tasvirlangan.Alisher Navoiy (1441–1501) ijodida ham tasavvufiy g‘oyalar muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, «Lison ut-tayr» asarida Attorning «Mantiq ut-tayr» an’anasi davom ettirilib, insonning o‘zligini anglash va ma’naviy kamolotga intilishi yoritilgan. «Hayrat ul-abror» dostonida esa adolat, saxovat, halollik va komil inson masalalari badiiy-falsafiy jihatdan talqin etilgan.Shu tariqa tasavvuf adabiyotda ramz, timsol, hikoyat va majoziy ifoda vositalarining kengayishiga ham ta’sir ko‘rsatgan.

Tasavvuf Sharq falsafasida inson, ruh, qalb, borliq, haqiqat va ilohiy muhabbat masalalarining chuqurroq tahlil qilinishiga xizmat qilgan. Ibn Arabiy (1165–1240)ning vahdat ul-vujud ta’limoti islom falsafasi va tasavvuf tarixida katta ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab metafizik qarashlardan biridir.Abu Homid G‘azzoliy esa diniy bilim, axloq va ruhiy tajriba o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilib, tasavvufning ilmiy-falsafiy asoslarini rivojlantirgan.Tasavvufiy tafakkurning muhim jihati insonni faqat tashqi faoliyati orqali emas, balki uning ichki dunyosi, niyati va axloqiy mas’uliyati orqali ham baholashga undashidir.Tasavvufiy an’analar Sharq me’morchiligida xonaqohlar, maqbaralar, ziyoratgohlar

va boshqa diniy-ma’rifiy inshootlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan.Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi, Buxorodagi Bahouddin Naqshband majmuasi va Ko‘hna Urganchdagi Najmiddin Kubro maqbarasi ushbu tarixiy merosning muhim namunalaridir.Bu inshootlarda Sharq me’morchiligiga xos gumbazlar, koshinkorlik, geometrik naqshlar, xattotlik va bezak san’ati rivojlanganini kuzatish mumkin. Mazkur obidalar diniy-ma’naviy ahamiyat bilan birga, o‘z davrining me’moriy va badiiy tafakkurini ham aks ettiradi.Tasavvuf ta’limotida insonparvarlik, saxovat, kamtarlik, mehr-oqibat, muhtojlarga yordam berish va halol mehnat qilish kabi tamoyillar alohida o‘rin egallaydi.Tarixiy davrlarda ayrim xonaqohlar nafaqat ruhiy tarbiya maskani, balki musofirlar uchun boshpana, xayriya va jamoaviy faoliyat markazi vazifasini ham bajargan.Tasavvufiy ustoz-shogird an’analari orqali axloqiy tarbiya, o‘zaro hurmat va ma’naviy mas’uliyat tamoyillari avlodlarga yetkazilgan. Bunday jarayonlar Sharq jamiyatlarining ma’naviy hayotiga ta’sir ko‘rsatgan.Shuni ta’kidlash kerakki, tasavvufning ijtimoiy ta’siri barcha hududlarda bir xil bo‘lmagan. U tarixiy sharoit, siyosiy muhit, mahalliy an’analar va muayyan tariqatning xususiyatlariga qarab farqlangan.Tasavvufning tarixiy merosi bugungi kunda ham ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Uning asosiy g‘oyalari insonning o‘zini anglashi, nafsini boshqarishi, halollik, bag‘rikenglik va jamiyat oldidagi mas’uliyatini his etishi kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liq.Zamonaviy jamiyatda moddiy manfaatlarning ortib borishi, axloqiy befarqlik, o‘zaro ishonchsizlik va ma’naviy qadriyatlarning zaiflashuvi kabi muammolar inson tarbiyasiga e’tibor qaratishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, tasavvufdagi nafs tarbiyasi, ixlos, sabr, tavakkul va mehr-oqibat g‘oyalari muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.Biroq tasavvufiy merosni zamonaviy sharoitda o‘rganish tarixiy manbalarga tayanishni talab qiladi. Turli tariqatlarning qarashlarini bir xil deb baholash yoki keyingi davrlarda shakllangan tushunchalarni avvalgi tarixiy davrlarga to‘liq tatbiq etish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas.Tasavvuf tarixini xolis o‘rganish uning ijobiy ma’naviy-axloqiy jihatlarini aniqlash, tarixiy jarayonlarni to‘g‘ri anglash va ajdodlar merosiga ilmiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.O‘rganilgan tarixiy va ilmiy manbalar tasavvufni faqat diniy ibodatlar yoki tarkidunyochilik bilan cheklab bo‘lmasligini ko‘rsatadi. U o‘z taraqqiyoti davomida diniy-ma’naviy tajriba, axloqiy tarbiya, falsafiy tafakkur va ijtimoiy institutlarni qamrab olgan murakkab hodisaga aylangan.

Alexander Knysh tasavvuf tarixini dastlabki zohidlik harakatlaridan boshlab, keyinchalik tariqatlar shakllanishigacha bo‘lgan jarayon sifatida izohlaydi.Alexandre Papas esa Xuroson va Markaziy Osiyoda tasavvufning IX–X asrlardan boshlab shakllangan ijtimoiy hamda intellektual muhitiga e’tibor qaratadi.Markaziy Osiyo tasavvufini o‘rganishda Devin DeWeese tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega.Olim Yassaviya va Kubroviya an’analarini ham Naqshbandiya tarixi bilan bir qatorda, mustaqil tarixiy hodisalar sifatida o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv tasavvuf tarixini faqat bitta tariqatning rivojlanishiga bog‘lab qo‘ymaslik kerakligini ko‘rsatadi.Ali Gibran Siddiquining Xojagon va ilk Naqshbandiya haqidagi tadqiqoti esa keyingi davr manbalarida shakllangan tarixiy rivoyatlarni avvalgi davr voqeliklaridan farqlash lozimligini ko‘rsatadi.Mazkur ilmiy qarashlarni umumlashtirish asosida tasavvufning Sharq madaniyatiga ta’siri uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘lganini qayd etish mumkin, insonning axloqiy va ruhiy tarbiyasiga ta’siri, adabiyot va falsafiy tafakkur rivojiga qo‘shgan hissasi; uchinchidan, xonaqohlar, maqbaralar va tariqat tarmoqlari orqali ijtimoiy-madaniy aloqalarni rivojlantirishdagi ishtiroki.Demak, tasavvufni o‘rganishda tarixiy manbashunoslik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish uning haqiqiy tarixiy o‘rnini aniqlash

uchun muhim hisoblanadi.Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:Tasavvuf islom tarixining dastlabki asrlarida shakllangan zohidlik va taqvodorlik an'analaridan rivojlanib, IX–XI asrlarda nazariy jihatdan boyidi hamda XII–XIII asrlardan boshlab tariqatlar shaklida institutsional taraqqiyotga erishdi.Tasavvufning asosiy mohiyati insonning qalbini poklash, nafsini tarbiyalash, ruhiy kamolotga intilish va ezgu axloqiy fazilatlarni shakllantirishdan iborat. Tavba, zuhd, sabr, tavakkul, ixlos, ma'rifat va muhabbat uning muhim g'oyaviy asoslarini tashkil etadi.Markaziy Osiyo tasavvuf tarixida muhim markaz bo'lib, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Najmiddin Kubro va Bahouddin Naqshband kabi mutafakkirlarning faoliyati mintaqa ma'naviy taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan.Tasavvuf Sharq madaniyatiga ko'p yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatgan.Xususan, mumtoz adabiyotda ilohiy muhabbat va komil inson g'oyalarining rivojlanishiga, falsafiy tafakkurda ruh va borliq masalalarining kengroq talqin qilinishiga, me'morchilikda esa xonaqoh va maqbaralar bunyod etilishi hamda bezak san'atining rivojlanishiga xizmat qilgan.Tasavvufning insonparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, sabr-toqat va bag'rikenglik kabi g'oyalari bugungi ma'naviy tarbiya jarayonida ham muhim ahamiyatga ega.Umuman olganda, tasavvuf Sharq xalqlarining diniy, falsafiy va madaniy tarixida muhim o'rin egallagan ko'p qirrali ma'naviy hodisadir. Uning tarixiy merosini ilmiy manbalar asosida o'rganish ajdodlarimizning ma'naviy tafakkurini chuqur anglash, milliy madaniyat tarixini xolis baholash va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Knysh, A. Sufism: A New History of Islamic Mysticism. Princeton: Princeton University Press, 2017.
2. Papas, A. "Sufism in Khurasan/Central Asia." Encyclopaedia of Asian History, 2021. DOI: 10.1002/9781119399919.eahaa00022.
3. DeWeese, D. Studies on Sufism in Central Asia. Farnham: Ashgate, 2012.
4. Siddiqui, A. G. "The Medieval Khwājagān and the Early Naqshbandīyya." Oxford Research Encyclopedia of Asian History, 2018.
5. Schimmel, A. Mystical Dimensions of Islam. Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1975.
6. Trimingham, J. S. The Sufi Orders in Islam. Oxford: Clarendon Press, 1971.
7. Ridgeon, L. (ed.). The Cambridge Companion to Sufism. Cambridge: Cambridge University Press, 2015.
8. G'azzoliy, Abu Homid. Ihyo ulum ad-din. XI asr.
9. Hujviriy, Ali ibn Usmon. Kashf al-mahjub. XI asr.
10. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Turli nashrlar.
11. Attor, Fariduddin. Mantiq ut-tayr. XII–XIII asrlar.
12. Navoiy, Alisher. Lison ut-tayr. 1498–1499.